

"Kelajak soati" darsining 1-4-sinf o'quvchilari uchun mashg'ulot ssenariysi:

7-mavzu: "Boqiy shaharlarimiz"

Dars maqsadi: umumiy maqsad: boshlang'ich sinf o'quvchilarini Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarining tarixiy ahamiyati, madaniy va ilmiy merosi bilan tanishtirish, bu orqali ularda Vatanga muhabbat va milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish. Shu bilan birga, bolalarda tarix, geometriya, arxitektura kabi fanlarga va madaniyatga qiziqish uyg'otish, ajdodlar qoldirgan merosni asrash hissini kuchaytirish, yurtimizning turizm salohiyatini ko'rsatish ko'zda tutiladi.

Aniq maqsadlar:

- ✓ **Bilim berish:** O'quvchilar Samarqand, Buxoro va Xivaning O'zbekiston tarixidagi o'rni va ahamiyatini bilib oladilar.
- ✓ **Tasavvurni boyitish:** Monitoridagi tasvirlar va o'qituvchi so'zlari orqali bolalar bu shaharlarning qadimiy muhitini tasavvur qila olishadi.
- ✓ **Qiziqish uyg'otish:** O'quvchilarda tarix, me'morchilik va madaniyatga bo'lgan qiziqish rivojlanadi.
- ✓ **Qadriyatlarni singdirish:** Bolalar ajdodlarimiz qoldirgan madaniy va tarixiy merosni asrash kerakligini anglab etishadi.
- ✓ **Tarbiyaviy maqsad:** O'quvchilarda vatanparvarlik, milliy iftixor va mas'uliyat hissi shakllantiriladi.

 **Asosiy g'oyalar:** Samarqand, Buxoro va Xiva kabi qadimiy shaharlar xalqimizning madaniy va ilmiy merosini ifoda etadi. Ular orqali o'quvchilarda bilimga intilish, ajdodlar yaratgan boy tarixiy merosni asrash va undan faxrlanish tuyg'usi shakllantiriladi. Bu shaharlar nafaqat o'tmishning yodgorligi, balki bugungi kunning ham ma'naviy boyligi hisoblanadi. Dars Vatanga muhabbat va milliy iftixor tuyg'usini oshirishga qaratilgan.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchalar darajasida:

- O'quvchi "boqiy shahar" tushunchasini sodda va to'g'ri izohlab bera oladi.
- Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlarning nomini eslab qoladi va ularning tarixiy ahamiyatini tushunadi.
- Madaniy meros nima ekani haqida dastlabki tasavvurga ega bo'ladi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- O‘z yurti, shahar va tarixiy joylarga nisbatan faxr va mehr hissi paydo bo‘ladi.
- Tarixiy obidalarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish zarurligini anglaydi.
- Ajdodlarimiz mehnatini qadrlash hissi shakllanadi.

3. Amaliy ko‘nikmalarda:

- Rasmga qarab shahar nomini ayta oladi (Registon – Samarqand, Minorayi Kalon – Buxoro...).
- Interaktiv topshiriqlarda ishtirok etadi (rasm chizadi, puzzle yasaydi).
- Tarixiy joylar tasvirlangan rasmlarga rang berish yoki ular haqida og‘zaki hikoya tuza oladi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Guruhda ishlash, muloqot qilish va tinglash ko‘nikmalari rivojlanadi.
- "Meros – hammamizniki" degan tushuncha shakllanadi.
- Sayyohlarga mehr, tarixga hurmat, madaniyatga e‘tibor qadriyat sifatida bolada shakllanadi.

Metapredmet: bu ta’limda o‘quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, **turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo‘llay oladigan umumiy ko‘nikmalarini** shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan, "Boqiy shaharlar" darsida:

1. Nutq va muloqot ko‘nikmalari (ona tili bilan bog‘liq):

- Tarixiy shaharlar haqida og‘zaki hikoya tuzadi;
- Guruhda o‘z fikrini ifodalaydi, savol-javobda faol ishtirok etadi.

2. Makon va vaqtni tushunish (tabiiy fanlar va tarix asoslari):

- Xarita orqali shaharlar joylashuvini anglaydi (Samarqand qayerda? Xiva qayerda?);
- Qadimiylik, hozirgi zamon tushunchalarini farqlaydi (oldin–hozir).

3. Tasviriy san’at va estetik did (san’at fanlari bilan bog‘liq):

- Tarixiy obidaning rasmini chizadi yoki ranglaydi;
- Arxitektura elementlari (gumbaz, minora, naqsh) haqida tushuncha hosil qiladi.

4. Ijtimoiy-madaniy ong (xalq og‘zaki ijodi, musiqa, adabiyot):

- Qo‘shiq, maqol, she’r orqali qadriyatlarni his qiladi;
- Boshqa xalq vakillarining mehmon sifatida kelishi haqida mulohaza yuritadi (turizmga doir dastlabki tushuncha).

5. Tanqidiy fikrlash va hayotiy qarorlar qabul qilish:

- Tarixiy obida buzilsa nima bo‘ladi? – muammoli vaziyatni tahlil qiladi.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti xodimlari. www.milliytarbiya.uz

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to‘plami:

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi – o‘quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo‘lgan motivatsiya mashg‘ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko‘rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o‘quvchilar darsning asosiy ma’nolarini tushunish va ochib berishga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda o‘quvchilarga tasviriy materialni tahlil qilish, videolarni ko‘rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g‘oyalarini umumlashtirish, mashg‘ulotga yakun yasash.